

**YUKSAK MA'AVIYATLI AVLOD-UCHINCHI  
RENESSANS BUNYODKORLARI**

**Ismatova Feruza Abduvahob qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

**Obloqulova Gulzira Jasur qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

**Boyto'rayeva Maftuna Elbek qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

**ANNOTATSIYA**

“Yuksak ma'naviyatli avlod-Uchinchi Renessans bunyodkorlari” mavzusida yozilgan maqola “Vatan taraqqiyotiga mening hissam” shiori ostida yozilgan bo‘lib, bugungi biz yoshlarga yaratilgan imkoniyatlardan o‘rinli foydalanib, O‘rta Osiyoda Uchinchi Renessansni barpo etishdek ulug‘ maqsadimiz yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Renessans, 9-12-asr, 14-asrning oxirgi choragi-16-asrning birinchi choragi, ilm-fan, madaniyat va ma’rifat, ta’lim va tarbiya.

O‘zbekiston! Ona yurt! Sen buyuk allomalarini dunyoga keltirding, biz ana shu buyuk ajdodlarimizning yetuk, barkamol izdoshlari bo‘lib, O‘rta Osiyoning 3uyg‘ onish davri avlodimiz. Shunday ekan bunyodkorlik, yangilanish sari olg‘a qadam tashlashga shaymiz Birinchi Renessans davri 9-12-asrlar, ikkinchisi 14asrning oxirgi choragi-16-asrning birinchi choragida namoyon bo‘lgan. Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg‘or, mutaraqqiy xalqlari qatorida edik. Bizning yurtimiz tarixiy voqealarga g‘oyat boy o‘lka bo‘lishi bilan birga azaldan ilmfan, madaniyat va ma’naviyatning markazlaridan biridir. Ona Vatanimiz dunyoga ma’naviyat va ma’rifatning barcha sohalarida yuzlab, minglab jahonshumul ulug‘zotlarni davlat arboblarini tarbiyalab bergen O‘rta Osiyoning madaniy merosi jahon madaniyati va ma’rifatining tarkibiy qismidir. Endilikda bu sultanatda o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan ulug‘larimizni teran ånglash, o‘rganish va ulug‘lash vaqtি keldi. Ulardan Beruniy xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni va ilmiy hamkorlikni yuksak qadrlaydi. Farobiy esa hayotning oliy maqsadi baxt va saodatga erishuvdan iborat, kishilar bunga olamni

o‘rganish, kasbhunar va ilmlarni o‘zlashtirish-ma’rifatli bo‘lish orqali erishadi deb qaraydi. “Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchisi uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak adashmagan bo‘lamiz”-dedi davlatimiz rahbari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida tasdiqlaganidek, “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim” Holva degan bilan og‘iz chuchimaganidek, Renessans degan bilan u sodir bo‘lib qolmaydi. Buning uchun har tomonlama puxta o‘ylangan siyosat olib borishi, xalqda ruhiy ko‘tarilish qat’iy irodali intilish yuz bermog‘i zarur. O‘zbekistonni daraxt deb bilsam, men o‘sha daraxtning egilmas, sinmas shoxidirman. “Vatan taraqqiyotiga mening hissam” shiorini jon tanimizga singdirib olib, biz yosh avlod shunday bir katta bunyodkorliklar qilaylikki, dunyoning rivojlangan davlatlari bizdan o‘rnak olsin. Yuksak ma’naviyat suvidan qonib-qonib suv ichdik, endi buni amalda isbotlaymiz, bo‘shliqni esa kitob o‘qib to‘ldiramiz, axir kitob o‘qigan insonda tafakkur juda yuqori bo‘ladi. Uchinchi Renessans davriga xush kelibsiz! Olg‘a yoshlar! O‘zligimizni namoyon etmoqqa omad yor bo‘lsin! Bizni qo‘llab rag‘batlantirib turadigan Yurtboshimiz omon bo‘lsinlar, ishoning biz sizning ishonchli qanotlaringizmiz. Guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek ozgina bo‘shliqli joylarimiz borda. Ota-onalarimizga bir o‘tinchim bor edi. Buyuk hakim Suqrot aytganidek: “Tarbiya qiyin ish va tarbiya shart-sharoitlarini yaxshilash – har qanday kishining muqaddas burchlaridan biri, zero, o‘zini va tevarak-atrofidagilarni ma’lumotli qilishdan ham ko‘ra muhimroq ish yo‘q”.

Farzandlaringizni milliy mafkuramiz va milliy g‘oyamizga sodiq holda tarbiyalang. Biz buyuk millatmiz, o‘zimizning beqiyos urf-odatlarimiz bor. Ammo internetdagi buzg‘unchi saytlar va ijtimoiy tarmoqlar vositasida o‘z targ‘ ibotiga ega bo‘lgan zararli g‘oyalardan saqlanish va ularga qarshi kurashda hushyor bo‘lish kerak. Chunki bir zumgina g‘aflatda qolsak, ular farzandlaringizni o‘z domiga tortib ketishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti LA.Karimov ta’kidlab

o‘tganlaridek : “ Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo‘lishi shart!”

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. L.A.Karimov “ Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish eng oliy saodatdir” nomli asari.
- 2.O‘tkir Hoshimov”Odamiylik mulki”asari
3. <https://www.in-academy.uz/index.php/zdaf/article/view/2059>
- 4.<http://tdtu.uz/uz/2022/05/27/uchinchi-renessans-yoshlar-nigohida/>
- 5.<https://www.sbtsue.uz/uz/news/view/345>